

AFG'ON XALQIGA NAVBATDAGI INSONPARVARLIK YORDAMI KO'RSATILDI



AFG'ON XALQIGA NAVBATDAGI INSONPARVARLIK YORDAMI KO'RSATILDI

Avval xabar berganimizdek, Ramazon hayiti munosabati bilan bugun O'zbekiston Respublikasining birodar afg'on xalqiga 58 ta vagondan iborat oziq-ovqat, dori-darmon va kiyim-kechak ortilgan navbatdagi insonparvarlik yordami ezgulik poezdida Termiz shahridagi "Ayritom" chegara o'tkazish punkti orqali qo'shni mamlakatga jo'natildi.

Afg'onistonga yuborilgan insonparvarlik yordami tarkibida quyidagilar o'rin olgan:

16 ta vagonda 1000 tonna un maxsuloti;

5 ta vagonda guruch mahsuloti

1 ta vagonda 12 ming dona ikra;

1 ta vagonda 9679 quti shokolad, pechenye;
1 ta vagonda 16 156 banka murabbo;
1 ta vagonda 70 000 qadoqda dori-darmon;
1 ta vagonda 100 ming dona vaktsina, 100 ming dona kovid-test, 20 ming dona kiyim-kechak, 10 tonna yog';
2 ta vagonda 6600 quti lapsha mahsuloti;
1 ta vagonda 103 716 dona dori-darmon;
29 ta vagonda 2000 tonna bug'doy.

Ayni vaqtda mazkur jarayonlarni viloyat hokimligi Axborot xizmati, AOKA viloyat boshqarmasi hamda markaziy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari yoritib borishmoqda.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



